

EMOTSIONAL BO‘YOQDORLIKKA EGA GAPLARNING TUZILISHI (KOREYS VA YAPON TILLARI MISOLIDA)



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-22-32-35>

Aslonova Husnida Botirjon qizi

O‘zDJTU Magistratura bo‘limi 1-bosqich talabasi

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Tel: (97)7705319 / email: aslonovahusnida@gmail.com

Ilmiy rahbar: Kim Natalya Dekxenovna

АННОТАЦИЯ

Ushbu ilmiy maqola koreys va yapon tilida emotsional bo‘yoqdorlikka ega gaplarning tuzilishiga bag‘ishlanadi. Unda koreys va yapon tilida emotsional bo‘yoqdorlikka ega gaplarning qanday yasalishi, nimalar asosida yasalishi va qanday ma‘no anglatishi chuqur tahlil qilinadi. Koreys va yapon tilida emotsional bo‘yoqdorlikni ifoda etuvchi undov so‘zlar va undov qo‘shimchalar turlari, ularning gapda joylashish o‘rni, qaysi so‘zlar bilan birga qo‘llanilishi ko‘rib chiqiladi. Koreys va yapon tilidagi emotsional bo‘yoqdorlikni ifodalovchi so‘z va qo‘shimchalarni gapdagi sintaktik o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, koreys tilida undov gaplarning yasalishining o‘ziga xos xususiyatlari va boshqa tillardan farqi yoritiladi. Shu qatorda, koreys va yapon tilidagi emotsional bo‘yoqdorlikka ega gaplardagi so‘z va grammatik qo‘shimchalarni o‘zbek tilida aynan ekvivalenti bor yoki yo‘qligi, tarjimada uning o‘rnini qanday grammatik qo‘shimcha yoki yuklama bosa olishi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *emotsiya, bo‘yoqdorlik, undov gap, undov so‘z, grammatik qo‘shimcha.*

ABSTRACT

This scientific article is devoted to the construction of emotionally charged sentences in Korean and Japanese. An in-depth analysis was made of how and on the basis of what emotionally charged sentences are made, as well as what it matters. The article deals with exclamatory words and types of exclamatory affixes, their place in a sentence and their use with other parts of a sentence. The syntactic role of words and affixes in Korean and Japanese sentences expressing emotional coloring is analyzed. It also highlights the features of the construction of exclamatory sentences in Korean and Japanese and their differences from other languages. In addition, it is analyzed whether words and grammatical suffixes in emotionally charged sentences in Korean and Japanese have an exact equivalent in Uzbek, and what grammatical suffixes or prepositions can replace them in translation.

Keywords: *emotion, coloring, exclamation mark, exclamation word, grammatical suffixes.*

Mamlakatimizda har yili ilm-fanning bir nechta yo‘nalishi tanlab olinib, alohida e‘tibor bilan rivojlantirilmoqda. Bu yil chet tillari ana shunday ustuvor sohalar etib belgilangan. O‘zbekistonning ochiqlik siyosati, dunyo bozoriga faol kirib borayotgani, barcha sohalarida xalqaro hamkorlik kengayayotgani xorijiy tillarni bilishga ehtiyojni oshirmoqda. Bugungi kunda yurtimizdagi 25 ta oliy ta‘lim muassasasida o‘qitish chet tilida olib borilmoqda. 2016-yilda ular atigi 7 ta edi. Xalqaro til sertifikatini olgan bitiruvchi o‘quvchilar soni oxirgi 3 yilda 10 baravarga oshgan. Joriy yilda “El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali 350 nafar talabaning nufuzli xorijiy universitetlarda o‘qishi uchun stipendiyalar ajratildi. Bu o‘tgan yillarga nisbatan 5 baravar ko‘pdir. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham “Mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘rgatish bo‘yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo‘ladigan yangi tizimni yo‘lga qo‘yish vaqti-soati keldi. Biz raqobatdosh davlat qurishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliy o‘quv yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qat‘iy talab har bir ta‘lim

muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim, ”¹ – deb ta’kidlaydi. Ana shunday shart-sharoitlar yaratib berilayotgani chet tillarini mukammal o’rganish va chet tillari bo’yicha chuqur izlanishlar olib borishga undaydi. Hozirgi kunda g’arb tillari bilan bir qatorda sharq tillarini o’rganishga bo’lgan talablar kundun-kunga ortib bormoqda. Ushbu ilmiy maqola koreys tilining ajralmas qismi bo’lgan undov gaplar va ularning grammatik xususiyatlariga bag’ishlangan. Ya’ni, koreys tilida emotsional bo’yoqdorlikka ega bo’lgan gaplarning tuzilishiga bag’ishlangan. Ma’lumki, har bir tilda shu tilda so’zlashuvchi xalqning madaniyati, turmush tarzi va qadriyatlarini bevosita o’z aksini topadi. Shuningdek, til doim jamiyat bilan uzviy bog’liq bo’lib, ularni bir-birisiz tasavvur etib bo’lmaydi. Ushbu bog’liqlikning asosiy komponenti bo’lgan tilning vujudga kelishida esa, undovlar to’g’risidagi farazlar ham mavjud. Emotsional bo’yoqdorlikka ega bo’lgan gaplarni o’z navbatida undov gaplar deb ham yuritiladi. Koreys tilida undovlar gap turlaridan biri sifatida o’rganiladi. Undov gaplar so’zlashuv nutqida ko’p ishlatiladi. Uning yordamida nutqimiz jonliligi, ishonchliligi ortadi, nutqdagi his-tuyg’u bo’yog’ini beradi. Xalq tasavvuri va turmush tarzining turli xilligi sabab bir tildagi undov gap boshqa bir tildagi undov gap xususiyatlari bilan to’g’ri kelmaydi. Koreys va yapon tilini o’rganayotgan talabalar koreys va yapon tilidagi undov gaplarni ona tilida mavjud undov gaplarning xususiyatlari bilan solishtirish va talqin qilish natijasida ko’pgina muammoli vaziyatlarga duch kelishadi. Shu bilan birga, koreys tilidagi ba’zi undov gaplar oxirida undov tinish belgisi qo’yilmay berilishi ham, ularni undov gap sifatida o’rganishdagi qator muammolarni yuzaga keltiradi. Boshqa tillardan farqli o’laroq, koreys tilida so’zlovchi hissiyotini ifodalashda undov so’z va qo’shimchalardan keng foydalaniladi. Boshqa tillarda bu hissiyotlar ifodasi so’z yoki so’z birikmasi tarzida berilishi mumkin. Natijada esa, tarjima jarayonida undov so’z bilan ifodalanishi kerak bo’lgan voqelik mazmuni qisman o’zgaradi. Shu sababli koreys tilida undov gaplarning o’ziga xos xususiyatlarini o’rganish masalasi bugungi kunda dolzarblik kasb etadi.

Koreys tilida gaplar quyidagicha klassifikatsiya qilinadi:

- 1) Gapning ma’nosiga ko’ra (darak gap, so’roq gap, buyruq gap).
- 2) His-hayajon ishtirokiga ko’ra (undov gap va undov bo’lmagan gap).
- 3) Gap bo’laklari ishtirokiga ko’ra (bir bo’lakli va ko’p bo’lakli)
- 4) Tuzilishiga ko’ra (sodda va murakkab).²

Koreys tilida undovlar turli xil hamda bir undov bir necha semantik qatorgaega. Shu sababdan, ham undov gaplarning turlari va ularning yasaliş jihatlariturlicha. Koreys xalqi juda ham ta’sirchan xalq bo’lgani uchun koreys tilidainsonning har bir his-tuyg’usini ifodalovchi undov so’zlar bor. Koreys tilida tinishbelgilari deyarli ishlatilmaydi. Shu sababdan boshqa tillarda undov bo’lmagangaplar ham, koreys tilida ohangi va undov so’zlar, shuningdek, undov gapyasovchi qo’shimchalar bilan undov gaplar sirasiga kiradi. Gapning tuzilishi vagapda qo’llanilgan undovlarga qarab, mazkur gapning ma’nosini anglash mumkin. Undovlar gap yoki gap bo’laklari bilan grammatik jihatdan bog’lanmaydigan, so’zlovchining his-hayajoni, buyruq, istak, ta’kid va javobini ifodalaydigan yoki predmetlarning o’rin va vaqtga munosabatini emotsionalbo’yoqlar bilan ko’rsatish uchun xizmat qiluvchi grammatik kategoriyadir. Boshqa tillarda bo’lgani kabi koreys tilida ham undovlar ayrim so’z sifatidama’lum bir predmet yoki uning belgisini ifodalamaydi, balki, his-hayajon kabiinson tuyg’usining so’zlarda bevosita in’ikosidir. Undovning ma’nosi ma’lum birvaqt, sharoit va o’rinda aniqlanadi. Shu jihatdan undovlar boshqa so’zlardan ajralibturadi.

Koreys tilidagi matnlarda undovlar quyidagi ma’nolarda qo’llanishi mumkin:

1. Darak gap ma’nosida:

싱거운 일이다! - Ajoyib voqea bo’ldi!

¹ <https://uza.uz> > posts

² D. Madaminova, “Koreys tilida undov gaplarning o’ziga xos xususiyati”, Toshkent: 2014.

2. Buyruq gap ma'nosida:

애, 위스키 병으로 가져와! - Hoy, viski olib kel!

3. So'roq gap ma'nosida:

아세요! 노여합니다.- Bilasizmi?!Hafasiz.

이 집은 협착해서 어떡해살어!-Bu uy tor, qanday yashayman!

저놈들이 또기어 들어와!-Ana u yaramaslar yana tiqilib kirib keldimi-a?!

4. Taklif gap ma'nosida:

나부터 하자!-Mendan boshlaylik!

Undov gaplar hissiyotni ifodalovchi grammatik qo'shimchalar orqali ham yasalishi mumkin. -

구나,-군(요),-규려,-아/어라,-누나,-노라,-도다, -야 kabi tugallanma qo'shimchalarni qabul qiladi.

Undov gaplarning talaffuzi gapdagi kesimga qo'shilgan qo'shimchalar orqali hosil qilinadi. Koreyalik mashhur tilshunoslardan biri Li Mi Ji ning «한국어 감탄 표현 교육 연구» (“ Koreys tilida undov gaplarning ifodalanishi haqidagi tadqiqot ” nomli ilmiy ishida ham koreys tilida qo'llaniladigan emotsional bo'yoqdorlikni beradigan grammatik qo'shimchalar haqida keng to'xtalib o'tilgan. Unda quyidagi grammatik qo'shimchalar berilib, har birining ma'nosi va qo'llanilish o'rni yoritib berilgan.

Endi yapon tilida undov gaplarni ko'rib chiqamiz. Yapon tili bilan koreys tilidagi undov gaplarni taqqoslaganimizda quyidagi holatni ko'rishimiz mumkin.

すごい! [대단해!]きれい! [예쁘다!] 大きいなあ! [엄청 크네!]

きれいだねえ! [예쁘네!]

やるう! [잘 하는데!] やった! [앗싸!] よく走りますねえ! [잘 뛰네요!]

すごい美人! [엄청 예쁘다!] ひどい話ですねえ! [심하네요!] 火事だ! [불이야!]

イ형용사의 기본형 (+종조사)

ナ형용사의 어간·기본형 (+종조사)

동사의 기본형·타형·ます형 (+종조사)

명사술어의 기본형·です (+종조사)

명사 그 자체 (거의 대부분 형용사의 수식을 받은 형태로)

Albatta, ko'pincha undov gaplar hozirgi bo'lib o'tayotgan vaziyatga qarab bizning hissiyotimizni bildiradi. Ammo, o'tgan zamonda bo'lib o'tgan voqea haqida ham hozir o'z his-tuyg'ularimizni bildirishimiz mumkin.

あれはおいしかったねえ! [저건 진짜 맛있었다, 그치!]

Ritorik so'roq gaplarda ham undov so'zlarni kuzatishimiz mumkin. Yapon va koreys tillarida ular quyidagicha ifoda etiladi.

なんて素晴らしいんだろう! [이렇게 맛있을 수가!]

なんとひどい話なんだ! [그런 말도 안 되는 경우가 있다니!]

何ておいしいことでしょう! [이렇게 맛있을 수가 있나요!]

Ushbu ilmiy maqolada koreys va yapon tilida emotsional bo‘yoqdorlikka ega gaplarning qurilishi va undov gaplar, undov gaplarni yasovchi so‘z va qo‘shimchalar ko‘rib chiqildi. Izlanishlar natijasida quyidagicha xulosaga kelindi. Undov gaplar grammatik jihatdan o‘ziga xos xususiyatlari bilan boshqa gap turlaridan farqlanadi. Bir qator o‘ziga xos gaplarni undov gaplar kategoriyasiga birlashtiradi. Koreys tilida ham undovlar gap yoki gap bo‘laklari bilan grammatik jihatdan bog‘lanmaydi, so‘zlovchining his-hayajoni, buyruq va istagini, ta‘kid va javobini ifodalaydigan grammatik kategoriyadir. Shu bilan birga his-hayajon kabi inson tuyg‘usining so‘zlarda bevosita in‘ikosidir. Undov gaplar ma‘nosi ma‘lum bir o‘rin, vaqt va sharoitda aniqlanadi. Undov gapda ohang muhim o‘rin tutadi. Chunki undov gaplar ma‘lum ohang bilan aytilmasa, u his-tuyg‘uni ifodalay olmaydi. Shuning uchun ohangning turlicha bo‘lishiga qarab undov gaplar xilma xil his-tuyg‘ularni anglatadi. Koreys tilida undov gaplar qurilishiga ko‘ra ikki usul undov so‘zlar va undov gap yasovchi qo‘shimchalarga bo‘linadi. Koreys tilidagi undov gap yasalishidagi yana bir o‘ziga xos jihat bu undov gap qo‘shimchalari hisoblanadi. Koreys urf-odatlar va tarixiga nazar solsak, ularda yosh va amal tushunchalari alohida o‘rin egallaydi. Shu sababdan ham undov gaplar qurilishidagi undov qo‘shimchalar yosh va amalning katta yoki kichigligiga qarab ishlatiladi. Bu esa koreys tilining o‘ziga xos xususiyatidir. Maqola orqali yapon tilida ham undov gaplar o‘z xususiyatiga ega ekanligining guvohi bo‘ldik. Yapon tilida ham undov so‘zlar mavjud bo‘lib, ularni o‘tgan zamonda ham hozirgi zamonda ham va hatto ritorik so‘roq gaplarda ham namoyon bo‘lishi mumkinligining guvohi bo‘ldik. Ilmiy maqolada koreyalik mashhur tilshunos Li Mi Jining «한국어 감탄 표현 교육 연구» (“Koreys tilida undov gaplarning ifodalanishi haqidagi tadqiqot” nomli ilmiy ishi ham sinchiklab o‘rganib chiqilib undagi emotsional bo‘yoqdorlikka ega bo‘lgan grammatik qo‘shimchalar maqolaga kiritildi. Bunda har bir grammatik qo‘shimchaning ma‘nosi, qo‘llanilishi va qay o‘rinda kelishi ko‘rib chiqildi. Bir so‘z bilan aytganda, koreys tilida emotsional bo‘yoqdorlikka ega gaplarning tuzilishi boshqa chet tillaridan farq qiladi. Shuningdek, emotsional bo‘yoqdorlikni beruvchi undov so‘zlar va grammatik qo‘shimchalarning boshqa ba‘zi tillarda ekvivalenti yo‘qligi ham ularni qanchalik qiziqiligi va o‘rganishga, izlanishga munosib ekanligini bildirdi. O‘zbek tilida aynan tarjimasini topilmasa, uni qanday boshqa so‘z bilan yoki yuklama bilan ifodalanishi mumkinligini izlab topishni talab etadi. Shunday ekan, kelajakda bu mavzuga chuqur to‘xtalib o‘tish va samarali izlanishlar olib borish lozim degan xulosaga kelindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. 이미지, «한국어 감탄 표현 교육 연구», 부산:부경대학교, 2014.
2. D. Madaminova, “Koreys tilida undov gaplarning o‘ziga xos xususiyati”, Toshkent: 2014.
3. <https://namu.wiki/w/한국어의 문법 요소>.
4. <https://en.dict.naver.com/#/main>
5. <http://library.ziyonet.uz/ru>
6. <https://uza.uz › posts>